ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXASTIK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEXANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	



MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEXANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xusanova Gulsum Baxtiyorovna

TKTI Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrası assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat granti shaklida moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari tahlil qilingan hamda tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilotlar, moliya, pul mablag'lari, davlat granti.

Abstract. This article analyzes the issues of financial support of non-governmental non-profit organizations in the form of state grants and offers suggestions for improving the system.

Key words: non-governmental non-profit organizations, finance, funds, state grant.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы финансовой поддержки негосударственных некоммерческих организаций в виде государственных грантов и предлагаются предложения по совершенствованию системы.

Ключевые слова: негосударственные некоммерческие организации, финансы, денежные средства, государственный грант.

KIRISH

2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnı va rolini oshirish, OAVning huquq va erkinliklarini ta'minlash, inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarning lozim darajada bajarilishini ta'minlashda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini mustahkamlash yo'nalishida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu borada Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi va fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari (keyingi o'rinlarda – NNT) hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga tanlov asosida davlat grantlari ajratib kelinmoqda.

Davlat granti – bu nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun tanlov asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan beriladigan pul mablag'lari va moddiy resurslardir.

Davlat grantlarini ajratish Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari (keyingi o'rinlarda — hududiy jamoat fondlari) orqali amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nodavlat notijorat tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakliga ta'rif berish uchun uni aniqlab beruvchi har bir belgini tahlil qilish zarur.

Tashkiliy-huquqiy shakli bir-biriga o'xshash bo'lgan notijorat yuridik shaxslarning huquqiy holatini aniqlash va ularni bir-biridan farqlash uchun O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda maxsus qonun hujjatlarida [1] notijorat yuridik shaxslarga xos bo'lgan barcha zarur belgilarga e'tibor qaratish, ularning aniq ta'rifini to'liq anglab olish lozim.

Sh. Nazarovning fikricha [2], har qanday jamoat tashkiloti ijtimoiy va, eng avvalo, huquqiy normalarga asoslanadigan tashkiliy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Jamoat tashkilotlari ongli ravishda tizimlashtirilgan ichki



tashkiliy munosabatlar yig'indisi hamda ijtimoiy voqelikka maqsadga muvofiq tarzda ta'sir etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy usullarning butun bir kompleksiga ega bo'lgan institut sifatida faoliyat yuritadi.

S. Jo'rayeva [3] fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari sifatida asosan siyosiy-huquqiy jihatga e'tibor qaratadi. Jumladan, "aholining siyosiy hayotda faol ishtirok etishiga ko'maklashish, o'z ta'sir doirasidagi fuqarolarni hukumat tomonidan qabul qilingan yoki tayyorlanayotgan qarorlar to'g'risida xabardor qilish, qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish yo'llarini tushuntirish" zarurligini ta'kidlaydi.

D. Xolmanova [4] nodavlat notijorat tashkilotlarining paydo bo'lishini xayriya jamg'armalari bilan bog'laydi.

Ye. V. Nelyubina [5] nodavlat tashkilotlarning asosiy vazifasi davlat tomonidan va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-madaniy sohalariga jalb qilingan ishtirokchilar orqali inson huquqlariga rioya qilinishini ta'minlash uchun fuqarolik nazoratini amalga oshirishdan iborat ekanini qayd etadi.

L. M. Salamon va S. V. Sokolovski [6] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda nohukumat tashkilotlar davlat va biznes bilan bir qatorda "uchinchi sektor"ni tashkil etishi qayd etilgan. Ular nodavlat tashkilotlarning boshqa nomlanishlari sifatida "fuqarolik" yoki "notijorat" tashkilotlar tushunchalari ham mavjudligini e'tirof etgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy munosabatlari bo'yicha juda kam ilmiy izlanishlar olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez hamda boshqa ilmiy usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat grantlarini ajratish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondining asosiy moliyaviy manbasi davlat budgetining respublika darajasidagi mablag'lari hisobidan shakllanadi, hududiy jamoat fondlarining manbasi esa asosan mahalliy budget mablag'lari hisobidan ta'minlanadi.

2008-yilda 7 ta NNT va fuqarolik jamiyati institutlariga 379 mln so'm miqdorida davlat granti ajratilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 231 ta tashkilot uchun 6 mlrd 550 mln so'mni tashkil etgan, 2022-yilda esa 160 ta tashkilotga 12 mlrd so'm mablag' ajratilgan (1-rasm).




1-rasm. 2008-2023-yillarda davlat granti tanlovlarida moliyalashtirilgan loyiha va ajratilgan mablag'lar¹

Shu bilan bir qatorda, Parlament komissiyasi va Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 2020–2023-yillar davomida hududlarda davlat grantlariga oid 200 dan ziyod o'quv mashg'ulotlari va "mahorat darslari" tashkil etilgan. Natijada, 2021-yildan boshlab hududiy vakillik organlari huzuridagi NNT hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha hududiy jamoat fondlari to'laqonli faoliyatini boshlagan. Joylarda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 2021-yilda mahalliy budgetlardan 313 ta loyiha uchun 9 mlrd 377 mln so'm, 2022-yilda esa 241 ta loyiha uchun 9 mlrd 23 mln so'm mablag' ajratilgan. 2023-yilda 250 dan ortiq loyihani 13 mlrd so'mga yaqin mablag'lar bilan moliyalashtirish rejalashtirilgan.

Qo'llab-quvvatlangan davlat granti loyihalari doirasida quyidagi ijtimoiy muammolarni hal etish uchun yo'naltirilgan mablag'larni kuzatish mumkin (2-rasm):

1 Oliy Majlisi huzuridagi jamoat fondi ma'lumotnomasi



- Aholini bandligini ta'minlashga ko'maklashish - 110 ta loyiha
- Islohotlarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish, ijtimoiy ong va dunyoqarashini o'zgartirish - 124 ta loyiha
- Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash - 163 ta loyiha
- Obodonchilikni t'minlash, tibbiy va ekologik madaniyatni yuksaltirish - 116 ta loyiha
- Yoshlarning ma'naviy-ruhiy va intellektual salohiyatini oshirish - 105 ta loyiha
- Inson xuquqlari, muloqot madaniyatini shakllantirish - 130 ta loyiha
- Madaniy meroslar, tibbiy va ekologik madaniyatni yuksaltirish - 134 ta loyiha

2-rasm. Davlat granti loyihalarining ijtimoiy muammolarni hal etish uchun yo'naltirilgan mablag'lar²

Ajratilgan mablag'lar natijasida 17 886 ta davra suhbat va turli tadbirlar tashkil etilgan bo'lib, ularda 2 459 973 nafar fuqaro qamrab olingan hamda 1 810 nafar ko'ngilli jalb etilgan. 13 322 nafar fuqaroga ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va psixologik yordam ko'rsatilgan, 77 899 nafar fuqaroning bilim va ko'nikmalari oshirilgan hamda ular kasb-hunarga o'qitilgan. Shuningdek, 6 414 nafar fuqaroning bandligi ta'minlangan, 546 nafar fuqaroga esa kredit ajratilishida yordam berilgan.

Bundan tashqari, 19 977 nafar fuqaro san'at va kitobxonlikka jalb etilgan, 180 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar sportning paralimpiya turiga, 13 778 nafar fuqaro esa sog'lom turmush tarziga jalb etilgan. 27 ta sport maydonchasi hamda 19 ta mahalla obodonlashtirish ishlariga jalb qilingan. 15 ta kutubxona, 8 ta o'quv kursi va to'garak tashkil etilgan, 500 ta brayl yozuvidagi kitoblar chop etilgan, 120 ta audio kitoblar jamlanmasi shakllantirilgan. 7 902 nafar fuqaro ichimlik suvi bilan ta'minlangan, 100 048 ta tarqatma material ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ularning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish va mustahkamlash, shuningdek, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish hamda gender tenglikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida "O'zi yoki qaramog'ida nogironligi bor yaqini bo'lgan xotin-qizlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ularni kasbga o'qitish borasida nodavlat notijorat tashkilotlariga berilayotgan grantlar miqdori 5 baravarga oshirilib, 200 mln so'mgacha yetkaziladi", deb ta'kidlagan.

Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan davlat granti shaklida bir loyiha uchun ajratiladigan mablag'lar miqdori loyihaning maqsad va vazifalari hamda amalga oshiriladigan ishlarning ko'lamidan kelib chiqib, 2018–2019-yillarda 18 mln so'mdan 30 mln so'mgacha, 2020–2021-yillarda 25 mln so'mdan 40 mln so'mgacha, 2022–2023-yillarda esa 50 mln so'mdan 100 mln so'mgacha etib belgilangan.

Shuningdek, ushbu mablag'lar doirasida turli sohalarda qisqa muddatli va o'rta muddatli loyihalar amalga oshirilgan. So'nggi to'rt yil davomida ajratilgan davlat granti loyihalar tahliliga ko'ra, qisqa muddatli loyihalar muddati 6 oygacha, o'rta muddatli loyihalar muddati esa 12 oygacha etib belgilangan. 2020–2022-yillarda ajratilgan loyihalar tahlilidan quyidagi natijalar kuzatilgan:

- 2020-yilda 35 ta grant loyihasi 6 oygacha, 202 ta loyiha 7 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatda amalga oshirilgan;
- 2021-yilda 11 ta grant loyihasi 5 oydan 6 oygacha, 279 ta loyiha 7 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatda bajarilgan;
- 2022-yilda 160 ta loyiha 8 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatda amalga oshirilgan;
- 2023-yilda esa 192 ta loyiha 8 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatda davom ettirilmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat granti shaklida bir loyiha uchun ajratiladigan mablag' miqdori ortgan sari NNTlar tomonidan taqdim etilayotgan loyihalarning amalga oshirish muddati ham uzayib borgan.

2 Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi ma'lumotlari asosida tuzildi.



Albatta, ajratilayotgan mablag'lar hajmi loyihaning maqsadlari, vazifalari va amalga oshiriladigan ishlar ko'lamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bir tomondan NNTlarni qo'llab-quvvatlash, ikkinchi tomondan esa mamlakatdagi ijtimoiy muammolarni hal etish uchun yo'naltirilayotgan davlat granti mablag'laridan samarali foydalanish masalalari dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni 2018-yilda qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlari hisoblanadi.

Ya'ni NNTlar o'zlari tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarni jamoatchilik nazorati subyekti sifatida mustaqil nazorat qilishlari mumkin. Biroq bu nazoratning haqqoniyligi va samaradorligi masalasi ochiq qolmoqda. Shu sababli NNTlar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat ko'magida amalga oshirilgan loyiha va dasturlar natijalari yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni oshirish hamda samaradorlikni baholash masalasi "O'zbekiston – 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash va xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini takomillashtirish yo'nalishi bo'yicha 2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasiga kiritilgani o'rinni hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, tadqiqot jarayonida NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun istiqbolli yo'nalishlar ham mavjud.

Birinchidan, davlat granti hisobiga faoliyat yuritayotgan NNTlar moliyaviy barqarorlikni oshirish va mehnat munosabatlarini tizimli asosda yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega. Buning uchun NNTlar faoliyatini grant mablag'lariga qaramlikdan bosqichma-bosqich mustaqil moliyaviy manbalar shakllantirish yo'nalishiga o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon grantlar orqali olingan tajriba va natijalarni yangi tashabbuslarni ilgari surishda qo'llash imkonini yaratadi hamda tashkilotlarning ustavda belgilangan maqsadlarni izchil amalga oshirishiga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, davlat granti mavzularini har yili ochiq jamoatchilik muhokamasi asosida shakllantirish mexanizmini yo'lga qo'yish NNTlar faoliyatining shaffofligini yanada oshiradi. Moliya yilining boshida grant yo'nalishlarini ochiq platformalarda e'lon qilish va keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish orqali hududlardagi dolzarb ijtimoiy masalalarga yo'naltirilgan loyihalarni tanlash samaradorligi ortadi. Bu yondashuv NNTlarning aholiga yaqin, amaliy natija beruvchi tashabbuslarni ilgari surishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, davlat granti shaklida qo'llab-quvvatlash hajmini oshirish NNTlar faoliyatining sifat va miqyosini kengaytiradi. Har bir loyihaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, moliyalashtirish hajmini 200 million so'mgacha oshirish NNTlar o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytiradi, innovatsion g'oyalar paydo bo'lishiga turtki beradi hamda ijtimoiy loyiha menejmentining yangi darajasini shakllantiradi.

To'rtinchidan, davlat grantlari asosida amalga oshirilayotgan loyihalarda davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Grantlar hajmining ortishi bilan ularning monitoringi va baholash mexanizmlarini ham raqamli asosda kuchaytirish zarur. Bu esa davlat organlari bilan NNTlar o'rtasida samarali hamkorlik, mas'uliyatli sheriklik va loyiha natijalarini tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Beshinchidan, grant loyihalarini tayyorlashda NNTlar tomonidan joylardagi ijtimoiy muammolarni bevosita o'rganish va jamoatchilik fikriga asoslangan tahlillarni keng joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv loyihalarning real ehtiyojlarga mos ishlab chiqilishini, ularning ijtimoiy ahamiyatini va barqarorligini oshiradi. Qisqa muddatli tashabbuslarni bosqichma-bosqich uzoq muddatli va tizimli loyihalarga aylantirish NNTlar faoliyatining strategik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, NNTlar ijtimoiy rivojlanish jarayonida faol ishtirok etar ekan, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, davlat grantlari hajmini bosqichma-bosqich kengaytirish va hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish O'zbekistonda insonparvar demokratik jamiyatni barpo etish va fuqarolik faolligini yuksaltirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 115-modda.
2. Sh.Nazarov. Konstitutsiya va jamoat birlashmalari. / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A.X. Saidov. – Toshkent: TDYUI, 2012. – B. 30
3. Jo'rayeva S. Fuqarolarning siësiy madaniyatini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2009. – № 4. –B.24
4. Xolmanova D.R. O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarning jamoat birlashmalari tizimidagi o'rni. Yurid. fan. nom.... dis. TDYUU, Toshkent, 2012. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/37583>. (Xolmanova D.R. The role of non-governmental non-profit organizations in the system of public associations in the Republic of Uzbekistan. Disser. cand. of jur. sciences. TSUL, Tashkent, 2012.)



5. Ye.V. Nelyubina Garantii i zaщita sotsialnykh prav cheloveka i grajdanina v Rossiyskoy Federatsii // Gosudarstvo i pravo. 2010. – № 5. – S. 101–102.
6. Salamon L.M. and Sokolowski S.W., Beyond nonprofits: Re-conceptualizing the third sector. VOLUNTAS: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations, 27(4), 2016. – PP. 1515–1545.; Anheier H.K. and Salamon L.M., The nonprofit sector in comparative perspective. The nonprofit sector: A research handbook, 2, 2006. – PP. 90–114.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>